

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining murojaati

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/anticorruption/message/o-zkiyosanoat-aksiyadorlik-jamiyati-boshqaruvi-raising-murojaati>

Hurmatli hamkasblar va hamkorlar!

So'nggi yillarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, byurokratiya va korrupsiyaning turli ko'rinishlariga qarshi kurashish mamlakatimizda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Buning yaqqol misoli sifatida sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Xususan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mazkur sohada boshlagan islohotlarning o'ziga xos huquqiy poydevori bo'lgan bo'lsa, "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonlari, shuningdek, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni korrupsiyaning barvaqt oldini olishga qaratilgan muhim konseptual hujjatlar sifatida xizmat qilmoqda.

Albatta, mazkur natijalarning asosiy ijrochilari nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul idoralar, balki boshqa davlat idoralari va tashkilotlari, biznes hamjamiyati, fuqarolik jamiyati instituti vakillari va keng jamoatchilik ham hisoblanadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqidan iqtibos keltirmoqchiman:

"Bizning jamiyatda bu illatga mutlaqo o'rin bo'lmasligi uchun qattiq kurashamiz. Mana shunday prinsipial qarash jamiyatimiz hayotida mustahkam qaror topishi uchun barchamiz birgalikda qat'iy harakat qilishimiz zarur".

Bundan tashqari, Davlat Rahbarining har yilgi murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalasiga alohida to'xtalib o'tilishi, ushbu sohada ko'plab qonun hujjatlarining qabul qilinishi bu sohaning **davlat siyosati** darajasida ahamiyatga egaligini ko'rsatib bermoqda.

"O'zkiyosanoat" AJ jamoasi o'z zimmamizga yuklangan mas'uliyatni yaxshi anglaymiz va o'z navbatida, tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali amalga oshirish uchun bor kuchimizni ishga solamiz. Tashkilot korrupsion harakatlarning har qanday shakl va ko'rinishlarini rad etadi, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan keskin murosasizlik shakllanishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, korrupsiyaga qarshi samarali tizimni yaratish – murakkab jarayon, biroq bu muhim va zarurdir. Har birimiz bu ishda nafaqat mamlakatimizda qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga ongli ravishda rioya qilishimiz, balki bu ishga insoniylik burchimiz sifatida qarashimiz zarur. Pirovardida, farzandlarimiz va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari faxrlanadigan qonun hujjatlari ustuvor bo'lgan mamlakatda yashaymiz!

"O'zkiyosanoat" AJ korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me'yorlarni hisobga olgan holda, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni vijdonan bajaradi, qonun hujjatlariga qat'iy rioya qiladi, faoliyatining ochiqligini ta'minlaydi, teng raqobat tamoyillariga amal qiladi, halollik, ochiqlilik va vijdonlilikning korporativ madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Fursatdan foydalanib, hamkasblarimiz, hamkorlarimiz va yurtdoshlarimizni ish yuritish standartlariga, korrupsiyaga qarshi tamoyillarga og'ishmay rioya qilishga, manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'ymaslikka, har qanday ehtimoliy qonunbuzarliklar haqida o'z vaqtida xabar berishga yana bir bor chorlayman. Korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning umumiy ishimiz va maslagimizga aylanmog'i darkor. Bu ishda barchangizni hamjihatlikka chaqiraman.

Hurmat bilan,

"O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi

Timur Muxamedjanov